

## O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

<sup>1</sup>Eraliyev Xosilbek Rasulbek o'g'li

Namangan muhandsluk-qurilish instituti talabasi,

<sup>2</sup>Sobuddinov Soxibjon Maxmudjonovich,

Namangan muhandsluk-qurilish instituti o'qituvchisi,

<sup>3</sup>Akmaliddinov Irkomiddin Mirzakber o'g'li

MA Buvayda ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7494703>

Tadqiqotlarga ko'ra dunyo aholisining 815 million nafari och qolayotganini aytsak, ularning 13 % rivojlangan davlatlarda yashaydi. Hozirgi kunda besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'lim 45 % ni tashkil qilyapti buning sababi shuki to'yib ovqat yemaslik. To'yib ovqat yemaslik natijada har yili 3,1 nafar bola vafot etmoqda. 2025 – yilga borganda 2 mln kishi ochlikdan olamdan o'tadi degan malumot ham yo'q emas.

Masalaning yana bir tomoni. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini yetkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi. Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo'l urildi. Ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kompaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmaning Atrof-muhit bo'yicha tashkiloti (YUNEP) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,3 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuborilar ekan. (Bunga qaysidir ma'noda o'zimiz ham to'ylarimizdagi isrofgarchiliklar orqali "hissa" qo'shmoqdamiz. Bejizga bunday tadbirlarni ixchamlashtirish bo'yicha ishlar olib borilmayapti). Ne'matlarning bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun birinchi navbatda ularni saqlash sharoitlarini o'zgartirish taklif etilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra dunyodagi oziq – ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi chiqindi idishlarda yotadi, budan jahon iqtisodiyoti tahminan trillion dollar zarar ko'rganligi aytiladi.

Tashkilot statistikasiga ko'ra, dunyoda har yili qariyb to'rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib, taqsimlansa, bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo'lardi. Yuqoridagi kabi omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib boryapti. Oxirgi o'n yilda

kuzatilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi esa mazkur muammoning keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Uning asoratlari hamon sezilyapti.

Zero, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini shu kabi asosiy mahsulotlar bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi.

Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash siyosati qachon samara beradi? Qachonki, mahsulot ishlab chiqarish va import qilish darajalari oqilona uyg'unlashtirilsa, bu borada aholi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratilsa, xalqaro pragmatik hamkorlik aloqalarni rivojlantirilsa, davriy ravishda yangilanib turadigan oziq-ovqat zaxirasini yaratishga ham qaratilgan bo'lsa.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi soni o'sishi asnosida jon boshiga istemol ko'paymoqda.

Binobarin, so'nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YAIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'idir.

Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud. Davlat rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi shu nuqtai-nazardan dolzarbdir.

Masalan, strategiyada O'zbekistonda 2018-yil holatiga ko'ra aholi o'rtasida umumiy to'yib ovqatlanmaydiganlarning ulushi 6,3 foizni tashkil etishi ko'rsatib

o'tilgan. Ushbu ulushni 2021-yilgacha 5, 2025-yilga kelib 3 foizgacha kamaytirish, 2030-yilga borib nol darajaga tushirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak?

Sir emaski, yurtimizda eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishdagi to'siqlar, nosog'lom raqobat, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan import mahsulotlarining monopollashtirilishi, narx-navoning sun'iy oshirilishi, taqchillikning yuzaga kelishi kabi bir qator muammolar hamon uchrab turibdi.

Bunday holatlar sohadagi ishchanlik muhiti, mamlakat investitsiyaviy imkoniyati va jahon bozoridagi obro'siga jiddiy ziyon yetkazishi tabiiydir. Binobarin, yuqoridagi Farmonning hayotga tatbiq etilishi yurtimiz bozorlarini sifatli, arzon va xavfsiz oziq-ovqatlar bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish imkonini beradi.

Ko'pchilikka ma'lumki, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga oziq-ovqat tovarlarini xorijdan import qilish bo'yicha bir qator individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlari, preferensiyalar berilgan edi. Natijada davlatimizning milliard so'mlab mablag'lari sarflanardi. Lekin bu amaliyot o'zini oqlamadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importi ayrim subyektlar tomonidan monopoliyaga aylantirildi. Xorijdan keltirilayotgan shakar, qand, o'simlik yog'lari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ichki bozorda ko'payishi hamda narx-navo pasayishi o'rniga, aksi bo'lib qoldi. Farmonga ko'ra, 2018-yil 1-fevraldan boshlab oziq-ovqat tovarlari importi uchun beriladigan barcha imtiyoz va preferensiyalar bekor qilindi. Pirovardida iste'mol tovarlari respublika tovar xom ashyo birjalarida sotilmoqda. Shuningdek, birjalarning ochiq elektron savdolarida sotish uchun (sotib olish) litsenziya talab qilinmaydi. Ilgarigi, ulgurji savdoga litsenziya olishda eng kam ish haqining 3,500 baravari va pul mablag'i 1,200 baravardan kam bo'lmagan ustav fondi mavjudligi haqidagi talab ham bekor qilindi.

Ichki iste'mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yuqoridagi mahsulotlar importi tovar-xom ashyo birjalari va xorijiy birjalar elektron savdolari tizimi orqali amalga oshirilyapti. Oziq-ovqat mahsulotlarining xaridi, jamg'arma tushumi va xarajatlari yagona portalda e'lon qilib borilmoqda. Xullas, xorijdan olib kelinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari savdosi shaffof holda amalga oshirilyapti. Eng muhimi, ushbu Farmon asosida sohaga doir qonunchilik va normativ baza takomillashtirilyapti.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атаханов Ш., Дадамирзаев М., Акрамбоев Р. Разработка технологии полуфабрикатов соусов-паст из плодов и овощей для предприятий общественного питания //Германия: Lap Lambert Akademik Publishing. – 2020.
2. Muzaffar D., Samara T., Feruza B. RESEARCH OF ORGONOLEPTIC, MICROBIOLOGICAL AND PHYSICO-CHEMICAL INDICATORS OF A NEW TYPE OF VEGETABLE SEMI-FINISHED SAUCES-PASTES //Universum: технические науки. – 2022. – №. 8-3 (101). – С. 44-48.
3. Дадамирзаев М. Х. и др. РЕЦЕПТУРА И ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА ОВОЩНЫХ ПАСТ НОВОГО НАПРАВЛЕНИЯ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-7 (97). – С. 21-27.
4. Исматов Р. О., Дадамирзаев М. Х., Маллабаев О. Т. An increase in efficiency of marketing activity in food market grown in agriculture of uzbekistan //Молодой ученый. – 2014. – №. 4. – С. 522-523.
5. Маматкулов О. Т. и др. Технология приготовления цукатов из нетрадиционных видов сырья (ореховые, гранатовые корки) //Universum: технические науки. – 2020. – №. 9-2 (78). – С. 31-33.
6. Атаханов Ш. Н. и др. Использование порошка-полуфабриката из соковых выжимок топинамбура для получения мучных национальных изделий //Хранение и переработка сельхозсырья. – 2017. – №. 8. – С. 5-7.
7. Нажмиддинова Ё., Дадамирзаев М. ГЛОБАЛЬНЫЕ ОРИЕНТИРЫ В ОБРАЗОВАНИИ //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 3. – С. 329-334.
8. Toshboeva S., Boqirova F., Dadamirzayev M. Recipe and technology of high viscosity broth for the preparation of semi-finished paste sauces //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A7. – С. 305-308.
9. Дадамирзаев М. Research of orgonoleptic, microbiological and physico-chemical indicators of a new type of vegetable semi-finished sauces-pastes //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
10. Бахриддинов Н. З., Дадамирзаев М. Х. Corporate Governance as the Way of Investment Attraction //Молодой ученый. – 2016. – №. 12. – С. 1118-1120.
11. Каноатов Х. М., Дадамирзаев М. Х., Мирзаев Э. А. Изучение физико-механических свойств одинарного фосфорного удобрения, полученного фосфорнокислотной активацией фосфатного сырья кызылкумского месторождения //Молодой ученый. – 2014. – №. 6. – С. 49-55.
12. Shukhrat A. et al. Research of physical and chemical indicators and food

value of semi-finished products of sauce-past of fruits and vegetables //Chemistry and Chemical Engineering. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. – С. 45.

13. Ғойипов, А., Абдухакимов, Т., & Рахмонов, Д. (2022). ЭРИТМА КОНЦЕНТРАЦИЯСИНИ ҲИСОБЛАШНИНГ ОПТИМАЛ УСУЛЛАРИ. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 416-420.

14. Rakhmonov, D., Jo'rayev, M., & Zolkirov, M. (2022). ПАХТА СANOАТИ CHANGLARINING KИMYOVIY TARKIBINI TADQIQ ETISH. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 412-415.

15. Zokirov, M., & Gayipov, A. (2023). METHODS OF PREVENTION OF YOUTH INTERNET DEPENDENCE. BEST SCIENTIFIC RESEARCH-2023, 2(1), 83-92.

16. Нормурадов, И. У., Сабирова, Р. Г. К., & Гойипов, А. Р. У. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕПЛОВЫХ СВОЙСТВ МОДИФИЦИРОВАННЫХ ФЕНОЛФОРМАЛЬДЕГИДНЫХ ОЛИГОМЕРОВ. Universum: технические науки, (6-3 (87)), 65-69.

17. Tohirov, M., Sobirova, S., & Shermatov, A. (2022). SIMOBNI ANIQLASHNING SPEKTROFOTOMETRIK USULI. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 235-239.

18. Гайипов, А. Р., Нормурадов, И. У., & Таджиходжаева, У. Б. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЕ СОСТАВА ФЕНОЛА СПИРТА НА ПРОЦЕСС ВШИВАНИЕ МОДИФИЦИРОВАННЫХ ФЕНОЛ-ФОРМАЛЬДЕГИННЫХ ОЛИГОМЕРОВ. Экономика и социум, (12-1), 457-461.

19. Абдуллаев, М. Т., Хайитов, Б. А., & Рахимов, У. Ю. (2018). The use of electrochemical activated water in order to increase the efficiency of breeding larvae of grain moth in bio-factory. Молодой ученый, (6), 86-88.

20. Qobuljon, A., Ibrohim, R., & Gayipov, A. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF FURFURYL ALCOHOL. Scientific Impulse, 1(4), 1774-1778.

21. G'oyipov, A., Mamayunusova, M., & Ergasheva, Z. (2022). Qovoq mag'zining tarkibini tadqiq etish. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(24), 596-599.

22. Rakhmonov, D., & Gayipov, A. (2022). STUDY OF COMPOSITION AND CRITICAL PARAMETERS OF DUST FROM LOCAL COTTON INDUSTRY. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(9), 77-81.

23. Zokirov, M., Abdug'aniyev, A., & Yusupova, M. (2022). KИMYOVIY ANALIZ USULLARI ASOSIDA O'SIMLIKDAGI FLAVONOIDLARNI ANIQLASH. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 172-175.

24. Usmonova, Z., Boyturaev, S., Soadatov, A., G'oyipov, A., & Dehkanov, Z. (2018). PROCESSING OF CALCIUM NITRATE GRANULATED CALCIUM SALTPETER. Scientific-technical journal, 1(2), 98-105.

25. Зокиров, М. (2022). ЁШЛАРНИНГ ИЗЛАНИШЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ ИЛМИЙ ПЛАТФОРМАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 107-110.